



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-IYUL


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-avgust holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 204 tani tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 365 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 30,3 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2024- yil 1-avgust holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 216 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 17,9 %), Qiziltepa tumanida – 186 ta (15,4 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyul oylari uchun)

2024- yilning yanvar-iyul oylarida, Navoiy viloyatida jami 4 773,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


2024- yilning yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 74,1 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 130,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 19,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 143,2 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 6,0 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 167,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,2 % i yoki 3 737,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 398,8 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.

37,4 %

1 398,8
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 391,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 37,2 % ni tashkil etdi.

37,2 %

1 391,1
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 947,1 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.

25,4 %

947,1
mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (986,8 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (840,1 mlrd. so'm) Navoiy shahri (774,5 mlrd. so'm), va Zarafshon shahri 428,6 mlrd. so'm) qayd etildi.


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	4 773,8	120,1	3 737,0
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	774,5	104,5	473,7
Zarafshon	428,6	101,7	369,5
G'ozg'on	18,0	101,8	4,2
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	103,0	91,4	30,3
Qiziltepa	840,1	102,8	641,8
Navbahor	334,1	92,8	269,6
Karmana	415,0	100,7	254,0
Nurota	367,2	71,1	333,2
Tomdi	986,8	8,3 m	984,8
Uchquduq	139,1	128,0	120,1
Xatirchi	367,4	103,9	255,8



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **3 536,8 mlrd. so'm.**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 35,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 20,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 21,7 % punktga kamayib, 33,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga kamayib, 30,8 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun:

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Tomdi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 98,4 % Uchquduq tumani (90,3 %) va Navbahor tumani (83,4 %) da kuzatildi.



Tomdi tumani
98,4 %




Uchquduq tuman
90,3 %



Navbahor tumani
83,4 %

2024- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish- 950,3 mlrd. so'm.




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 51,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 32,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 49,0 % (32,1 % punktga kamaydi).

2024- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 35,7 % i), Zarafshon shahar (29,1 %) va Qiziltepa tumani (28,8 %)da kuzatildi.



35,7 %
Navoiy shahar




29,1 %
Zarafshon shahar



28,8 %
Qiziltepa tumani

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 286,7 mlrd. so'm.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga 100 % to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % punktga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Gʻozgʻon shahrida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 62,2 % i), Konimex tumani (47,2 %) va Navoiy shahar (12,7 %) kuzatildi.



62,2 %
Gʻozgʻon shahri




47,2 %
Konimex tumani



12,7
Navoiy shahari


2024- yilning yanvar-iyul oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
2,4 m

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
92,6%

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
93,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 749,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,4 marotabani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 18,3 % punktga ko'payib, 36,6 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,6 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 92,6 % ni tashkil etgan holda 1 937,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2024- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 22,8 % ni yoki 1 087,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil etdi. Shundan 649,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 297,2 mlrd. soʻmni va 83,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 140,3 mlrd. soʻmni va 102,7 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyul oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 296,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 477,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,2 % va 93,8 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Tomdi tumanida (986,8 mlrd.so'm), Qiziltepa tumanida (840,1 mlrd.so'm), Navoiy shahrida (774,5 mlrd.so'm) va Zarafshon shaharda (428,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlari **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73